TILSHUNOSLIK

UDK:811.512.133 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol28_iss4/a36**

“YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI” KITOBIDA QO‘LLANGAN“*YASHIL”* LEKSEMASINING SEMANTIK TAKOMILI

СЕМАНТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЛЕКСЕМЫ *«ЗЕЛЁНЫЙ»* В КНИГЕ «СТРАТЕГИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА»

SEMANTIC DEVELOPMENT OF THE LEXEME *“GREEN”* IN THE WORK “NEW UZBEKISTAN STRATEGY”

Yokubbayeva Umida Abduvaxob qizi[1]

[1]**Yokubbayeva Umida Abduvaxob qizi** − Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsıya

Maqolada “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida qo‘llangan “yashil” leksemasi doirasida shakllangan birikmalar, birikma komponentlarining etimologiyasi, ularda ustama semalarning ifodalanish usullari, ushbu lug‘aviy birliklarning bugungi siyosiy matnning mazmuniy mundarijasida bajarayotgan vazifasi tahlil qilingan. Tahlil jarayonida qiyosiy metadologik usul asosida “yashil” so‘zining denotativ va konnotativ ma’nolari izohi bo‘yicha yaratilgan ilmiy adabiyotlarga tayanib, ijtimoiy-siyosiy matnlar doirasida yangi siyosiy jarayonlar nomemasi sifatida qo‘llanayotgan birikmalarning kontekstual xususiyati o‘rganilib, “yashil” so‘zi atrofida shakllangan, mavjudlari esa kengaygan semantik maydon tahlil etildi.

Аннотация

В статье проведен анализ использованной в книге «Стратегия нового Узбекистана» «зелёные» сочетания, совершенствованные в пределах лексемы, этимология компонентов сочетаний, способы выражения их дополнительных значений, задачи этих словарных единиц в тематических содержаниях сегодняшних политических текстах. В процессе анализа на основе метода сопоставления по денативному и коннотативному значению слова «зелёный», основываясь на научную литературу, были изучены контекстуальные признаки применяемых единиц в пределах социально-политических текстах в качестве новых номем политических процессов, были проанализированы увеличивающиеся семантические поля, имеющие отношения к слову «зелёный».

Abstract

In the article, the compounds formed within the green lexeme left in the New Uzbekistan Strategy book, the etymology of the components of the compound, the ways of expressing superlative terms in them, the function of these linguistic units in the content of today's political text are analyzed.In the course of the analysis, based on the scientific literature created on the interpretation of the denotative and connotative meanings of the word "green" based on the comparative methodological method, the contextual features of the compounds that remain as symbols of new political processes within the framework of socio-political texts were organized, and the semantic field formed around the word "green" and the existing ones expanded were analyzed.

Kalit so‘zlar: *semantika, ustama sema, kontekstual xususiyat, etimologiya, dominant sema.*

Ключевые слова: *семантика, дополнительная сема, контекстуальные признаки, этимология, доминантная сема.*

Key words: *semantics, additional seme, contextual feature, etymology, dominant seme.*

KIRISH

XX asr boshlaridan butun dunyo tilshunosligida tilga semiotik nuqtai nazardan yondashuv asosiy o‘rinni egalladi. Ferdinand de Sossyur g‘oyalari asosida til belgilar sistemasi sifatida qaraldi va til birliklarining sistemaviy tabiatini ochib berishga asosiy e’tibor qaratildi [3,11]. Tilshunoslikda leksemani semantik xususiyatini o‘rganish o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlangan. Biz foydalanayotgan har bir so‘z ma’lum belgini ifodalash bilan birga o‘ziga xos qo‘shimcha semalarga ham ega. So‘zning o‘zgacha xususiyatlari ma’lum bir kontekstdagina yuzaga chiqadi. Tilning lug‘at tarkibida yuz berayotgan o‘zgarishlarning asosiy sababchisi sifatida taraqqiyot omilini ko‘rsatish mumkin.

2021-yildan buyon o‘zbek xalqi Yangi O‘zbekiston shiori ostida yashashni boshladi. Yangicha siyosat, yangicha dunyoqarash, shu bilan birga, yangicha hayot tarzining boshlanishi, o‘z o‘rnida tilimizda yangicha ifodalarning paydo bo‘lishiga ham sabab bo‘ldi. Tilning o‘zgarishidagi hamma jarayon jamiyatning talab va ehtiyojidan kelib chiqadi [8,55].

TILSHUNOSLIK

Hali umumxalq tiliga to‘liq ko‘chib ulgurmagan yangi lug‘aviy birliklar OAV matnlari hamda davlat hujjatlarida keng qo‘llana boshladi. Ularning siyosiy matnda qo‘llanishi bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish tilshunoslik oldidagi muhim ishlardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

“Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida ***“yashil energetika”***, ***“yashil belbog‘”***, ***“yashil texnologiya”***, ***“yashil iqtisodiyot”***, ***“yashil kun tartibi”***, ***“yashil maydon”, “yashil moliyalashtirish”*** kabi birikmalar qo‘llangan. Biz nutqimizda foydalanadigan denotativ ma‘noga ega so‘zlarni indikativ va deskriptivlik xususiyatiga ega leksemalarga ajratgan holda o‘rganamiz. Ushbu birikmalar tarkibidagi ***“yashil”*** leksemasi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da sariq va ko‘k rang o‘rtasidagi rang [9,126] sifatida berilgan va biz uni indikativ so‘zlar sirasiga kiritamiz. Shu bilan birga A.Hojiyev, A.Nurmonov va boshqalarning “Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati”da *yashil* so‘zining “**yosh”** [11,291] qo‘shimcha semasi ham mavjudligi haqida ma’lumotlar mavjud. Bu ma’no leksemaning etimologik taraqqiyoti bilan bog‘liq. “Ma’rifat” gazetasining 2020-yil 22-may sonida turkiy tillardagi eng qadimgi ranglar haqida ma’lumotlar e’lon qilingan bo‘lib, *yashil* so‘zi ***yaşıl/yäşil*** tarzida qo‘llanganligi, asosi ***yas*** — “yosh, navqiron” degan semalarni ifodalaganligi aytilgan. Demak, bu so‘z arxaik jihatdan ot so‘z turkumiga mansub bo‘lgan. Bu leksema Eski o‘zbek adabiy tilida ijod qilgan Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida ham qo‘llangan bo‘lib, B.Abdushukurov [2,21] ushbu asar ustida olib borgan ilmiy tadqiqotlari davomida eski turkiy tildagi ranglar qatorida *yashil* so‘zi haqida ham ma’lumotlar berib o‘tgan. Tilshunos Sh.Iskandarovaning [6] leksikani mazmuniy maydon bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasi, semantika bo‘yicha tadqiqot materiallari bizning ilmiy faoliyatimiz uchun muhim manbalardan biri bo‘ldi. L.Nigmatovaning [4] doktorlik ilmiy ishida tilimizga kirib kelayotgan yangi birliklar haqida fikr yuritilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Turkiylar tabiatda ko‘p duch keladigan ranglarini dastlab, yashil emas ***“ko‘k”*** deb atashgan. Keyinchalik esa, *-il* affiksi yordamida tabiatdagi yashil rang ma’nosini ifodalovchi *yashil* so‘zi yasalgan. Yuqorida biz sanab o‘tgan birikma komponentlari uzviy bog‘liqlikdagina bugungi yurtimizning ijtimoiy-siyosiy voqealigida yangi tushuncha yarata olgan va tarixan umumnutqqa tegishli bo‘lgan *yashil* so‘zining ichki semalaridan biri asosida *tabiiylik, tabiatga xoslik* ma’nosi garchi lug‘aviy valentlik nuqtai nazaridan bir-biriga mos emasdek tuyulsa-da, ijtimoiy-siyosiy kontekst tarkibida qo‘llanuvchi *energetika, iqtisodiyot, texnologiya, moliyalashtirish*, *maydon, belbog‘, kun tartibi* kabi so‘zlar bilan ijtimoiy-siyosiy tushuncha ifodalovchi yangi lug‘aviy birliklarni yuzaga keltirgan.

Tabiat va jamiyatdagi o‘zgarishlar, paydo bo‘layotgan yangi narsa-hodisalar tilda o‘z ifodasi, atamasi bo‘lishini talab qiladi [10,108]. Tilimizga lisoniy va nolisoniy omillar hamisha o‘z ta’sirini o‘tkazib kelgan. Ularning har ikkisi bir butun mexanizm hisoblanadi [12,7]. Nafaqat Yangi O‘zbekistonda, balki butun dunyo bo‘yicha tabiatni asrash va aslicha saqlab qolish, ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish bilan iste’mol jarayonidan tortib, turli sohalar faoliyatini tabiiylik asosiga qurishga katta e’tibor berilmoqda. Bu esa ekstralingvistik omil sifatida o‘zbek tilida *yashil* so‘zi atrofida birlashuvchi yangicha ijtimoiy-siyosiy tushunchalar shakllanishiga sabab bo‘ldi. Bu jarayon birikmalar misolida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

“Yashil iqtisodiyot” – atrof-muhitni muhofaza qilish, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishni o‘z ichiga olgan iqtisodiy model [14]. Bu tushuncha bugungi kunga qadar faol qo‘llanilmagan. Bir tilning boshqa tillarga sezilarli ta’sir etishi uchun bir til egalari boshqalarga nisbatan ijtimoiy hayotning biror jabhasida ustunlikka ega bo‘lishi lozim [2,17]. Demak, bu tushuncha ifodalayotgan jarayon dastlab Yevropaning rivojlangan davlatlari tomonidan amalga oshirilgan. *Yashil iqtisodiyot* atamasi birinchi marta Birlashgan Qirollik hukumati uchun 1989-yilda bir guruh yetakchi ekologiya iqtisodchilari tomonidan “Yashil iqtisod uchun” loyihasi (Pearce, Markandya va Barbier, 1989) deb nomlangan hisobotida qo‘llanilgan. Bugunga kelib, tabiatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayot bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatuvchi yangi paradigma shakllanib ulgurdi. Shu bilan birga, butun dunyo tillari va o‘zbek leksik qatlamida “yashillashish”, “yashillashtirish” so‘zlari ham qo‘llana boshlandi. Masalan, *“...“yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasini hayotga tatbiq etish orqali iqtisodiyotning energiya va resurs sig‘imdorligini qisqartirish maqsadga muvofiqdir”* [1,153]. Kitobda qo‘llangan *yashil iqtisod* lug‘aviy birligi **“Green**

ekonomy” birikmasining aynan kalkalangan variantidir. Umumnutq doirasida ushbu leksemaning “rang” semasi faol qo‘llanib kelinadi. Birikmalar tarkibining komponent tahlili asosida *tejamkor, qayta tiklanuvchan, tuganmas, zararsiz, sof, toza, tabiiy* kabi yangi qo‘shimcha ma’nolar *yashil* so‘zining ranglik ma’nosiga nisbatan ustama semalar sifatida kelib, qo‘shimcha ottenkalar shakllanishiga olib kelganligini ko‘rish mumkin. Chunki *“yashil rangdagi iqtisod”* birikmasi semantik jihatdan siyosiy ahamayat kasb etmaydi va birikma qismlari leksik valentlikka ega emas. Buni *“tejamkor iqtisod”* deb talqin qiladigan bo‘lsak, davr talabini aks ettirgan yangi lisoniy birlik paydo bo‘ladi. Birikmalar tarkibidagi *toza, sof, tabiiy* so‘zlari esa, o‘z ichida paradigmatik munosabatga kirishadi.

Iqtisod sarf-harajatdagi tejam, yoki turli sohadagi tejamlilikni o‘rgatuvchi fandir [11,81]. *Iqtisod* leksemasi bilan bir uyada yotuvchi *moliya, moliyalashtirmoq* so‘zlari hamkorligidagi yana bir birikmaviy ifoda ham o‘zbek tiliga kalkalangandir. **“Yashil moliyalashtirish”** – bu investitsiya qarorlariga ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) masalalarini kiritishni bildiruvchi keng qamrovli atama. Bu tushunchaning tarixi 1970-yillarga borib taqalsa-da, barqaror rivojlanish harakatining burilish nuqtasi 2015-yilgacha, “Barqaror rivojlanish maqsadlari” va Parij kelishuvining boshlanishi bilan vujudga kelgan [14,2]. Bu atamani tabiatdagi ifloslanishlarni kamaytirish uchun sarf etiladigan mablag‘larning barcha shakli deb tushunsa ham bo‘ladi. **“Yashil moliyalashtirish”** tushunchasi ifodalovchi semalar tarkibida biroz o‘zgarish mavjud. Hokim bo‘lakka tayangan holda *yashil* so‘zining ma’nosini izohlasak, atamaning asl ma’nosi yanada oydinlashishi mumkin. Ya’ni bu yerda *“tabiiy moliyalashtirish”, “yosh moliyalashtirish”, “qayta tiklanuvchi moliyalashtish” yoki “toza (*yoinki uning sinonimlari*) moliyalashtirish”* deb tushunish to‘g‘ri emas. Ushbu birikmaviy ifoda dastlab Yevropa mamlakatlarida ekologik muammolarni bartaraf etishga jalb qilinadigan mablag‘ga nisbatan qo‘llangan va xuddi shu tushuncha zamiridagi faoliyatni ifodalovchi lug‘aviy birlik “**green finansing”** birikmasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zbek tiliga o‘girildi. Demak, bu birikma tarkibidagi *yashil* so‘zining botiniy jihatdan yakka sema emas yuqoridagi qo‘shimcha semalarga bog‘langan tushuncha ifodalovchi birlik sifatida tahlil qilish o‘rinli. Ushbu birikma ishtrok etgan biror bir kontekst semantik tahlil qilinsa, biz bergan izohlarni yaqqol sezish mumkin. Masalan, *““Yashil” texnologiyalar sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash, sanoat korxonalarining shunday texnologiyalarga o‘tishini rag‘batlantirish va bu jabhada “yashil moliyalashtirish” tizimini rivojlantirish lozim”* [1,393]. *“Tabiat muhofazasiga jalb etiluvchi mablag‘lar”* sifatida izohlash ham mumkin. Bu o‘rinda birikma ma’nosini yanada oydinlashtiruvchi “yashil texnologiya” tushunchasi nimaga ishora qilayotganligini bilish muhim.

“Yashil texnologiya” – bu tabiiy muhit va resurslarni kuzatish, modellashtirish va saqlash uchun bir yoki bir necha ekologik fan, yashil kimyo, atrof-muhit monitoringi va elektron qurilmalarni qo‘llash hamda inson ishtirokining salbiy oqibatlarini bartaraf etish [13,2]. Bu atama shamol turbinalari va boshqalar kabi barqaror energiya ishlab chiqarish texnologiyalarini tavsiflash uchun ham ishlatiladi. Ushbu iboraning leksik qatlam doirasida yuzaga kelish va faollashishiga BMTning “Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida”gi konvensiyasi doirasida, 2015-yil 12-dekabrda konsensus asosida Parij kelishuvi qabul qilinganligi sabab bo‘lgan [14,3]. “Yashil texnologiya”ning bir bo‘lagi sifatida **“Yashil energetika”**ni keltirish o‘rinli bo‘ldi. Chunki dunyo miqyosida o‘zini-o‘zi qayta ishlovchi elektr energiya manbalarini ishlab chiqarish texnologik jarayon sifatida qaraladi. Bu birikmalar ham kalkalangan shaklda bo‘lib, Yevropa mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy hayotida taxminan 2000-yildan beri ***Clean technology, Clean Edge, Envirotech, Cleantech*** [14,4] shaklida qo‘llangan birikmaviy iboralar mavjud bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ta’sirida o‘zbek leksik qatlamiga kirib keldi. Barchamizga ma’lumki, ***yashil*** so‘zining atash semasi sifatida asosan rang ongimizda gavdalanadi. Ushbu lug‘aviy birliklar orqali anglashilgan tushuncha ifodalagan jarayon mohiyatidan kelib chiqib, ***“yashil rangdagi texnologiya”*** emas, balki ***“qayta tiklanuvchi texnologiya”, “tabiiy texnologiya”, “toza texnologiya”*** ayrim ilmiy manbalarda ***“atrof-muhit texnologiyasi”*** tarzida ham izohlanadi. *Yashil* leksemasining dominant sema ustidagi ustama semalari sifatida *“qayta tiklanuvchi, tabiiylik”* ma’nolari birliklar o‘rtasidagi valentlikni shakllanishiga xizmat qilgan. Ijtimoiy-siyosiy lug‘aviy birlik sifatida qo‘llanayotgan ushbu birikmalarga asos bo‘lgan *yashil* so‘zining ifoda semasi kontekstdan ajratib olinib, munosabatga kirishgan leksik birliklar bilan birgalikda atash ma’nosi kabi jamiyat ongida tushuncha semalarni shakllantirmoqda.

TILSHUNOSLIK

Texnologiya yunoncha *techne-mahorat, logos-ta'limot* degan ma'noni anglatib, ishlab chiqarishning biror sohasida xomashyo, material, yarimfabrikat va shu kabilarga ishlov berish yoki qayta ishlash, ularning holati, xossalari va shaklini o'zgartirishda qo'llanadigan usullar majmui [11,81]. Ushbu ta'rifga asoslangan holda *"qayta tiklanuvchi ishlov berish usuli"*, *"tabiiy xomashyo mahsulotlarini ishlab chiqarish usuli"* kabi tushuncha shakllantirilsa ham to'g'ri bo'ladi. Ushbu texnologik jarayonning bir qismi bo'lgan *yashil energiya* jumlasi ostida ham ilg'or mamlakatlar tajribasi asosida yurtimizda rivojlanayotgan yangi sohalarni: *"quyosh energiyasi", "shamol energiyasi", "suv energiyasi"* kabi *"tabiiy energiya"* va *"qayta tiklanuvchi energiya"* manbalarini tushunish mumkin.

Umumiy xulosa qilsak, *yashil* so'zi o'zi ishtirok etayotgan birikmalar tarkibida yakka sema ifodalashdan tashqari, tushuncha ifodalovchi lug'aviy birlik vazifasini ham bajarmoqda. Bu ifodalar hozircha yangi bo'lib, amaliy faoliyatda va OAVlarida to'xtovsiz qo'llash, omma nutqiga tez o'zlashishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, birikmalar tarkibidagi yashil so'zining ayni birikma tarkibida ifodalagan semasi muqobil variantibilan almashib qo'llangan o'rinlarniham ko'rish mumkin. Masalan, *"...ekologik toza texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida ShHTning "Yashil belbog'" dasturini ishlab chiqish bo'yicha tashabbusimizni ilgari surishda davom etamiz"* [1,394]. Matnda qo'llangan ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik yangi birliklardan yana biri **"Yashil belbog'"** bo'lib, ShHT dasturlaridan birining nomi. Bu birikmaning siyosiy tahliliga to'xtalishdan avval *belbog'* so'zini izohlab o'tamiz. *Belbog'* so'zi *bel* va *bog'/bog'lam* so'zlarining birikishidan hosil bo'lgan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da belga bog'lanadigan to'rtburchak shakldagi gulli yoki gulsiz mato, belga bog'lanadigan har qanday narsa[9,220] kabi ma'nolarni anglatishi va yerning ekvator chizig'iga nisbatan ham qo'llanishi mumkinligi haqida ma'lumotlar bor.

Lingvomadaniy xususiyatga ega bu leksema o'zbek milliy kiyimlaridan biri hisoblanadi. D.Rustamovning "Leksemalar milliy-madaniy xoslangan semasining lingvomadaniy aspekti" nomli ilmiy ishida *belbog'* so'zining barcha semalari lingvomadaniy xususiyatga egaligini ta'kidlaydi [13]. Shu bilan birga har qanday leksemaga xos denotativ va konnotativ ma'no matn mazmunidan kelib chiqib anglashiladi. Aslini olganda, yashil kamar – bu ma'lum bir hudud atrofidagi chegarani belgilovchi, hududning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi va yovvoyi tabiatning qaytishi va paydo bo'lishiga imkon beruvchi ko'rinmas chiziq [13,4]. Bu atama 1930-yillarda Londonda yaratilgan. Buyuk Biritaniya va Angliyada aholi sonining ko'payishi yangi yerlarga bo'lgan ehtiyoj va yerdan samarali foydalanish maqsadi bu atamani shakllantirgan [14,6]. Kolumbiya universitetining sobiq iqtisod professori Rexford Guy Tugwell prezident Ruzveltning ko'chirish ma'muriyati uchun "Yashil belbog'li shaharcha" dasturini ishlab chiqqan. Yashil belbog'li shaharlar qishloq hayotining eng yaxshi tomonlarini: ko'llar, o'rmonlar va ochiq joylarni shahar hayotining eng yaxshi tomonlari: dam olish maskanlari, teatrlar va do'konlar bilan birlashtirgan. XIX asrda bu "ochiq maydonlar", XX asrda esa "yashil o'pka" kabi tushunchalar shakllangan [14,7]. Ularning bugungi kundagi terminologik davomi sifatida Yevropada **"green bilt"** atamasi qo'llanmoqda. Biz esa ayni shu oxirgi variantni o'zbek tilidagi muqobil varianti sifatida "yashil belbog'" birikmasi orqali qandaydir bir ijtimoiy-siyosiy jarayonni nomlashni boshladik. Natijada lug'at tarkibida yangicha ifoda paydo bo'ldi. Demak, bu birikma tarkibidagi so'zlarni quyidagicha izohlash o'rinlidir: yashil – tabiiy; belbog' – geografik makon, hudud, joy va h.k. Yoki "O'zbek tilining izohli lug'ati"da berilgan quyidagi izohga asoslangan holda ta'rif berishimiz mumkin. "Har narsaning o'rta belidan o'tgan faraziy chiziq yoki halqa" [8,126]. Ushbu ta'rifdagi "chiziqlik" ma'nosi "yashil belbog'" birikmasi tarkibida mavjud va ayni kalkalangan variantdagi tushunchaga ham monanddir.

Kitob matnida yashil so'zining ustama semalari atrofida birlashish natijasida hosil bo'lgan boshqa birikmalarni ham uchratishingiz mumkin. Jumladan, **"yashil maydon"** birikmasi ham qo'llangan. Bu birikma yuqoridagisining mantiqiy davomidir. *"Orol dengizining qurigan tubida "yashil maydonchalar" – himoya zonalari barpo etish ishlarini ushbu hududni to'liq o'rmonzorlashtirishga qadar davom ettirish lozim"* [1,398]. Butun dunyo uchun global muammo bo'lib kelayotgan atmosfera tozaligini barqarorlashtirish yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar sirasida **"yashil maydon"** loyihasini alohida ta'kidlash lozim. Bu birikmaviy tushuncha dastlab Yevropa mamlakatlarida qo'llangan. Ushbu tushunchani ifodalovchi birlik asosan 2021-yildan o'zbek lug'atida ijtimoiy-siyosiy birlik sifatida qo'llana boshlandi. Bunga o'sha yili ekologiya va atrof-

muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan “yashil maydon/yashil makon” loyihasi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ham bir sabab bo‘lgan.

“Xalq so‘zi” gazetasining 2021-yil 5-noyabr sonida esa prezidentimizning “Yashil makon” umummilliy loyihasini e’lon qilganligi,unga ko‘ra yiliga 200 mln tup daraxt va buta ko‘chatlarini ekish rejalashtirilganligi haqida xabar ham e’lon qilingan edi [14,8]. “Yashil maydon” birikmasi Yevropa mamlakatlarida “**Greenfield”** [14,9] shaklida XIX asr o‘rtalaridan qo‘llanila boshlangan bo‘lib, qurilish sanoatidan kelib chiqqan atama [14,9]. Umuman foydalanilmagan yoki o‘zlashtirilmagan yerlarga nisbatan qo‘llangan. Bu atamaning o‘zbek tilidagi muqobili sifatida qo‘llanila boshlangan yashil va maydon so‘zlariga*“yashil rangli o‘simliklar mavjud ochiq yer”* deya izoh bersak, kitob matnida birikma ifodalagan asl ma’no yuzaga chiqadi. Demak, bu yerda yashil so‘zining dominant semasi (ranglik) asosida birikma shakllangan. Yuqoridagi termin darajasiga ko‘tarilish arafasida turgan bir uyaga aloqador, semantik maydon yaratishga xizmat qilayotgan *yashil* so‘zining yangi ma’nolaridan yana biri **“Yashil kun tartibi”** birligidir: *“Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqlim o‘zgarishlariga moslashuvi, shu bilan birga, resurslarni tejaydigan texnologiyalarni kengroq tatbiq etishga ko‘maklashadigan “Markaziy Osiyo uchun “Yashil kun tartibi” mintaqaviy dasturini ishlab chiqish tarafdorimiz”* [1,369].

Yashil so‘zi atrofida birikkan ayrim birikmalar kontekst tarkibida izohlab ham o‘tilgan, biroq “yashil kun tartibi” birikmasi loyiha nomi sifatida bir o‘rindagina tilga olingan xolos. “Kun tartibi” birikmasi valentlik jihatidan *yashil* so‘zi bilan bog‘lanish imkoniyatiga ega emas. Asl ma’noni aniqlashdan avval uch tarkibli birikma komponentlarining semantik xususiyatlariga to‘xtalib o‘tamiz. Hokim so‘z sifatida kelayotgan “kun tartibi” birligi tor doirada qaysidir individ yoki jamoaning bir kunlik taqsimoti tushuniladi. Butun dunyo miqyosida faollashgan *yashil* leksemasi ta’sirida ushbu birlik ma’nosi ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb eta boshladi. Endilikda faqat yakka shaxs emas, butun bir tashkilot, mintaqa va mamlakatlarning ekologik xavfsizligini ta’minlash maqsadida amalga oshirilayotgan jarayonning nomemasiga aylandi. Xususan, Yevropa mamlakatlarida “yashil kun tartibi” siyosiy atamasini atrof-muhitga ta’sir qiladigan sohalarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimidagi tashkilotlar, hukumatlar va asosiy guruhlar tomonidan global, mahalliy va milliy miqyosda amalga oshiriladigan kompleks harakatlar rejasi sifatida ko‘rsatishadi. Ushbu atama lug‘at tarkibimizda Yangi O‘zbekiston shiori ostida siyosiy tus olib, tarixan BMT ning “**Agenda 21”** deya atalgan atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha Rio deklaratsiyasi va o‘rmonlarni saqlab qolish bo‘yicha 178 dan ortiq mamlakatlar tomonidan Rio-de-Janeyroda (Braziliya) bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha konferensiya” [14,10]sida qo‘llangan.

Ilk bor 1992-yilda boshlangan harakat bugun “yashil kun tartibi” sifatida butun dunyoga tarqaldi. **“Kun tartibi”** birikmasi atrofida inson ongida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuzaga keluvchi tushunchalar mavjud. Masalan, kun tartibi sifatida erta turish, badantarbiya qilish, to‘g‘ri tartibda va to‘g‘ri (foydali) taomlanish, aqliy va jismoniy mehnat bilan shug‘ullanish, o‘z vaqtida dam olish kabilarni keltirish mumkin. Umumiy sema esa to‘g‘ri tashkillangan kun demakdir. Ya’ni “*tabiatni aslicha saqlab qolishga qaratilgan to‘g‘ri harakatlarning reja yoki dasturi”* deb tushunish o‘rinlidir. Chunki kalkalash jarayonida mavjud leksema o‘z semasi bilan birgalikda boshqa tilga ko‘chishi lozim. O‘zbek lug‘at tarkibida qo‘llanila boshlangan “yashil kun tartibi” atamasi ham yuqoridagi kabi tabiatni saqlab qolishga qaratilgan tabiiy, to‘g‘ri harakatlar jarayoni sifatida tilimizda qo‘llana boshlandi.

Yashil so‘zi bilan bog‘liq **“yashil yo‘lak”** iborasi ham bugungi kunda siyosiy hayotimizda faol qo‘llana boshladi. Bu ibora dastlab Green Lane – Malayziyaning Penang shu nomdagi yo‘l mavjud bo‘lgan va bu jarayonda so‘zning dominant ma’nosi “ranglik” xususiyati bosh me’zon qilib olingan. Chunki yo‘l atrofining yashil o‘simliklarga boyligi bunga sabab bo‘lgan. Bundan tashqari Tailantdagi Suvarnabhumi aeroporti yonidagi eski yo‘lakdan velosport uchun foydalanishgan va unga “Yashil yo‘lak” nomini berishgan. Bu jarayonda ranglik semasi emas, yoshlik, salomatlik bilan bog‘liq ijobiy sema saqlanib, sog‘lomlashtirish ma’nosi ifodalangan.

Green Lane – yashil yo‘lak birikmasining o‘zbek leksik tarkibiga aynan siyosiy jarayonning nomemasi sifatida o‘zlashtirilishi 2017-yilning 11-oktabridagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegaralari orqali o‘tkazish punktlarida ikki yo‘lakli tizimni qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 814-sonli qarori [14,11] bilan bog‘liq. “Yashil yo‘lak” orqali maxsus deklaratsiyalanmaydigan buyumlar olib o‘tilishi mumkinligi va

chuqur tekshiruvlarga muhtoj emasligi voqeligidan kelib chiqib, *“ochiq yo‘lak”*deb tushunish o‘rinli bo‘ladi. Demak, bu birikma tarkibidagi yashil so‘zining ifodalagan kontekstual ma’nosi “ochiqlik”, “to‘siqsizlik”dir.

XULOSA

Yashil so‘zidan o‘sib chiqqan leksik-semantik variantlar invariant hisoblanib, ular alohida-alohida sintagmatik munosabatga kirisha oladi [5,12]. Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, asrlar davomida *tabiat* leksemasi bilan bir butunlikda ongimizda akslanuvchi *yashil* leksemasi yozuvchi va shoirlar nutqidan ijtimoiy-siyosiy matnlarga ko‘chdi. Yashil leksemasi atrofida alohida maydon shakllandi. Qo‘shimcha ustama semalar esa, albatta, siyosiy matnlarda ko‘zga tashlanishni boshladi. Bugungi kunda OAV bu birliklarni ommalashishiga ko‘prik vazifasini bajaruvchi bosh vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: O‘zbekiston, 2021. – бет 464. (Mirziyoev Sh. New Uzbekistan strategy. - T.: Uzbekistan, 2021. - page 469)
2. Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузий” лексикаси. – Т.: Akademiya, 2008. – бет 21. (Abdushukurov B. Lexicon “Qisasi Rabguzi”. - T.: Academy, 2008. - page 21)
3. Маматов А. Ўзбек тили лексикологиясидан материаллар. – Т.: 2009. – бет 11. (Mamatov A. Materials from the lexicology of the Uzbek language. - T.: 2009. - page 11)
4. Нигматова Л. Мустақиллик даври ўзбек луғатчилигида тил ва маданият муштараклиги муаммоси. Филол. фан. док. дисс. автореф. – Б.: 2021. (Nigmatova L. The problem of commonality of language and culture in Uzbek lexicography during the period of independence. Philol. science. doc. diss. autoref. - B.: 2021)
5. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Т.: Akademnashr, 2013. – бет 12. (Hakimov M. Basics of Uzbek pragmalinguistics. - T.: Akademnashr, 2013. - page 12)
6. Ҳожиев А., Муҳаммаджонова Г., Бегматов Э., Ғойибов С., Муллаев Т ва Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси. – Т.: Фан, 1981. (Hojiev A., Muhammadjonova G., Begmatov E., Goyibov S., Mullaev T and Mirtojiev M. Lexicology of the Uzbek language. - T.: Science, 1981)
7. Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. – Т.: Фан, 1998. (Iskanderova Sh. Problems of learning vocabulary based on content field. - T.: Science, 1998)
8. Ғуломов А.Ғ. Адабий тил нормалари// Ўзбек тили нутқ маданиятига оид масалалар (тўплам). – Т.: 1973. – бет 55. (Ghulomov A.G. Literary language norms// Issues related to speech culture of the Uzbek language (collection). - T.: 1973. - page 55)
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати V жилд. – Т.: O‘zbekiston nashriyoti, 2020. – бет 126. (Explanatory dictionary of the Uzbek language, volume V. - T.: Publishing House of Uzbekistan, 2020. - page 126)
10. Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А., Расулов И ва Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили I қисм. – Т.: Ўқитувчи, 1980. (Shoabdurahmonov Sh., Askarova M., Hojiev A., Rasulov I and Doniyorov Kh. Modern Uzbek literary language, part I. - T.: Teacher, 1980)
11. Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S., Kokren K., Saidxonov M., Sobirov A va Quronov D. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – T.: Sharq, 2001. – бет 291. (Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S., Kochren K., Saidkhanov M., Sobirov A and Kuronov D. An explanatory dictionary of active words of the modern Uzbek language. - T.: Sharq, 2001. - page 291)
12. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Talqin, 2005. (Jamolkhanov H. Modern Uzbek literary language. - T.: Talqin, 2005)
13. Рустамов Д. Лексемалар миллий-маданий хосланган семасининг лингвомаданий аспекти. Филол. фан. номз. ...дисс. – F.: 2018. – бет 4. (Rustamov D. Linguistic aspect of the national-cultural specific scheme of lexemes. Philol. science. name ... diss. - F.: 2018. - page 4)
14. Internet ma’lumotlari (Internet information):
1. https://mineconomy.uz/uz/info/4305
2. https://www.bechtel.com/blog/sustainability
3. https://en.wikipedia.org/wiki/2015_United_Nations
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashil_texnologiyalar
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Green_belt
6. https://www.historytoday.com/green-belt
7. https://www.greenbeltmuseum.org/greenbelt-history
8. https://xs.uz/uz/post/prezident-shavkat-mirziyoev-yashil-makon
9. https://www.greenfieldin.org/residents/history-of-greenfield
10. https://en.wikipedia.org/wiki/Agenda_21
11. https://kun.uz/uz/87163666
12. https://test.dushanba.uz/